



VIJDON VA E'TIQOD ERKINLIGI

*Ilmiy rahbar Samatov Xurshid O'lmasjonovich
Keldiyorov Quvonchbek Odiljon o'g'li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
Axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali
"TTKT" fakulteti 23-06-guruh talabasi
Elektron manzil quvonchbekkeldiyorov186@gmail.com*

Anotatsiya: Ushbu maqolada vijdon va e'tiqod erkinligi tahlili bo'lib, har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Kalit so'zlar: vijdon, e'tiqot, diniy, dunyoviy, Alloh, Konstitutsiya, siyosiy, erkinlik, imtiyoz, demokratik, Qur'oni Karim.

Shiddat bilan rivojlanayotgan davrimizda kundan kunga zamon zinapoyalaridan ko'tarilib borayotgan ekanmiz, dinga va e'tiqodga bo'lgan e'tibor, diniy va dunyoviy bilimlar darajasi ko'pchilik insonlar orasida muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Aslini olganda vijdon erkinligi bu bizning davlat tomonidan kafolatlangan huquqimizdir. Vijdon so'zi arabcha "vujda" ya'ni "topmoq" degan ma'noni anglatadi. Topmoq deganda, kimni ya'ni Butun Olamlarning Robbisi bo'lmish Alloh taoloni topish nazarda tutiladi. "Siz biron bir ishni qilib turganingizda vijdon bilan qildingmi?" "Alloh ko'rib turibdi deb qildingmi?" degan ma'noda aytiladi. Xo'sh, endi vijdon va e'tiqod erkinligi haqida qonunlar va konstitutsiya nima deydi deb savol tug'ilishi mumkin. Bunga ham alohida to'xtalib o'tamiz. Vijdon erkinligi bu nafaqat ijtimoiy balki falsafiy hamda diniy tushunchadir.

Konstitutsiyaviy olib qaraganda, har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, yashab turgan jamiyatida mavjud va amalda bo'lgan qonun va me'yorlarni buzmaganda vijdoni buyurganicha yashash va xohlaganidek ishlash imkoniyati deganidir. Tanganing ham ikki tomoni bo'lgani kabi bu tushunchalarga nisbatan dinda munosabat boshqa tomonlama hisoblanadi. Siyosiy jihatdan vijdon erkinligida demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik tomonlama to'xtalganda esa Vijdon erkinligi bu shaxslarning huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi" qonun tasdiqlangan va Inson Huquqlari



to'g'risidagi Xalqaro dekoratsiya talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Unga ko'ra Konstitutsiyamizning 35-moddasida shunday keltiriladi: "Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar" to'g'risidagi qonunga ko'ra: "Dinga munosabatidan qat'iy nazar fuqarolarning tengligi ta'minlanadi." Ushbu qonunda ta'kidlanishicha, hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Insonning e'tiqod va vijdon erkinligiga bo'lgan asosiy huquqi – Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyada mustahkamlangan huquq haqida gapirar ekanmiz bu huquq har bir shaxsning qadr-qimmatini va muxtoriyati uchun muhim bo'lib, erkin va demokratik jamiyatning tamal toshi hisoblanadi. E'tiqod va vijdon erkinligi diniy, falsafiy yoki axloqiy xarakterga ega bo'lishidan qat'i nazar, o'z e'tiqodiga ega bo'lish va uni ifoda etish huquqini o'z ichiga oladi. Shuningdek, u o'z e'tiqodlarini o'zgartirish va ularni hech qanday aralashuv va kamsitishlarsiz amalga oshirish erkinligini ham o'z ichiga oladi. Bu huquq har bir shaxsning shaxsiyati va daxlsizligi uchun asos bo'lib, u hech qanday istisnosiz himoyalaniishi va ta'minlanishi kerak.

E'tiqod va vijdon erkinligini inkor etish qanday ta'qib, kamsitish va zo'ravonlikka olib kelganini tarix davomida va butun dunyoda guvohi bo'lganmiz. Shaxslar va jamoalar e'tiqodlari tufayli nishonga olindi va robotlashtirildi, sal badiiy gapiradigan bo'lsam manqurtga aylantirildi. Ularning huquqlari eng dahshatli tarzda poymol qilindi. Bu hech qanday sivilizatsiyalashgan jamiyatda toqat qilib bo'lmaydigan og'ir adolatsizlik bo'lgan.

Biz kelib chiqishi, e'tiqodi va kimligidan qat'i nazar, barcha odamlarning e'tiqod va vijdon erkinligini himoya qilish va targ'ib qilish uchun birgalikda harakat qilishimiz kerak. Negaki bugungi jamiyatimizda din, e'tiqod yoki vijdon erkinligiga nisbatan katta tushunmovchiliklar yuzaga kelmasligi uchun. Agar demokratik gapiradigan bo'lsam, biz har bir inson o'z e'tiqodini ta'qibdan qo'rqqmasdan ifoda etish huquqiga ega bo'lishini ta'minlashimiz kerak. Fikr va e'tiqod xilma-xilligi hurmat qilinadigan dunyoni yaratish uchun tinimsiz mehnat qilishimiz talab etiladi albatta.

Xulosa qilib aytganda, keling, e'tiqod va vijdon erkinligini umuminsoniy huquq sifatida qo'llab-quvvatlashga sodiqligimizni yana bir bor tasdiqlaylik. Keling, har bir inson o'z e'tiqodiga ko'ra qo'rquv va xurofotsiz yashashi mumkin bo'lgan dunyoni yaratish uchun birgalikda harakat qilaylik. Endi tanganing ikkinchi



tomonini o'giraman. Hop, vijdon erkinligi berilibdi deb qolipdan chiqib ketishimiz va dahriy yoki atiest bo'lib qolishimiz kerak degani emas. Alloh taoloning Qur'oni Karimda keltirgan oyatlarida ham insonlar e'tiqodi uchun eng maqbul yagona din bu Islomdir deb aytilgan. Bu degani e'tiqod erkinligi o'zimda deb har kim boshlagan turli xil oqimlarga kirib ketish yoki dinni yuzga niqob qilib boshqalarni turli e'tiqodlarga majburlash degani emas. Biz insonlarda doim ikki xil qarash bo'lgan. Vijdon va e'tiqod erkinligi bu bir biridan ayro bo'lmaydigan tushunchalar mening nazarimda. Lekin bu ikki dunyoni bir biridan ayro turib, turli talqin qilib, birini tanlab, ikkinchisidan voz kechib ham bo'lmaydi. O'zlikni anglash, vijdon erkinligi, bu dunyo va oxiratni o'ylash, ta'lim va tarbiyani mukammal o'rganish, dinimiz bo'lmish muqaddas Islomda ham, "Qur'oni Karim" kitobida ham belgilab qoyilgan. Mening fikrim shuki, hayot faqat bir tomonlama nazariyadan iborat emas!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдусамедов А.Э. Динлар тарихи . – Тошкент:УзМУ , 2004. – 208 б.
2. Виждон еркинлиги ва диний ташкилотлар тугрисида (янги тахрири). Узбекистон Республикасининг конуни. - Тошкент: Адолат, 1998.
3. Узбекистон Республикасининг Конституцияси. - Тошкент: Узбекистон, 2008. - 40 б.
4. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179
5. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179
6. <http://markaz.tiu.uz/cyrl/articles/view?id=212>
7. <https://constitution.uz/oz/clause/index>
8. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=337>.
9. <https://iaau.uz/oz/news/2148>.
10. <https://www.amerikaovozi.com/a/uzbekistan-religious-freedom-uscirf-cosman-interview/1815264.html>